

LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR”
ROMANIDA MAHALLIY KOLORIT

Turdiyeva Yulduz

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktorant*

E-manzil: y.turdiyeva@yandex.com

Tel: (97)7058681

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ijodkor uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi vositalardan biri bo‘lgan mahalliy kolorit tushunchasiga keng ta’rif berilib, joy koloriti va uning tarkibiy qismlarining qo‘llanilishi, bajarayotgan vazifasi, asardagi o‘rni Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mahalliy kolorit, urf-odatlar, joy tasviri, sheva, qahramon xarakteri, qahramonlar yashash tarzi, asar hayotiyligi, ishonarliligi.*

Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani ijodkorning uslubiy izlanishlari mobaynida yaratgan individualligining bir natijasi sifatida ko‘plab ko‘ngillardan joy olgan asarlardan biridir. Romanning o‘ziga xos uslubda yaratilganligi uning mazmuni, g‘oyasi yoxud yo‘nalishi bilangina emas, shuningdek, asarning tili, qahramonlarining xarakteri, hikoya qilinish yo‘li, umuman olganda, har bir tasvirda ko‘zga tashlanadi. Xususan, yozuvchi uslubini namoyon qiluvchi “mahalliy kolorit” tushunchasining ushbu romandagi vazifasi ham o‘ziga xosdir. Avvalombor bu atamaga izoh beradigan bo‘lsak, “Mahalliy kolorit, avvalo adib tilga olmoqchi bo‘lgan viloyat, tuman. U tug‘ilib o‘sgan yurtning o‘ziga xos qiyofasi. Qolaversa, yozuvchi o‘z asarida tasvir ob‘yekti qilib olgan joyning tabiati, benazir shart-sharoiti, odamlarning turmush tarzi, ichki olami, dunyoqarashi, o‘sha joyga xos udumlar, an’analar. Yozuvchi ana shunday konkret hayotiy voqelikni badiiy bo‘yoqlarda aks ettirish orqali mahalliy koloritni tasvirlashga erishadi. Mahalliy kolorit asarning mazmuni bilan bog‘langan bo‘lib, qahramonni shakllantirgan, uning ichki mohiyatini ochuvchi sharoitni yaqqolroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Demak, mahalliy kolorit deyilganda, tasvirlanayotgan joyning jo‘g‘rofiy muhiti va sharoitining har tomonlama yorqin manzarasi nazarda turiladi. Qahramon yashagan joy, uning milliy o‘ziga xos xususiyat va belgilari, qahramon mansub bo‘lgan xalqning urf-odatlarini tasviri ham e’tiborga olinadi”. [Doniyorova Sh. 3:40] Shoira Doniyorova Shukur Xolmirzayev hikoyalarini badiiy-uslubiy tahliliga asoslangan nomzodlik dissertatsiyasida mahalliy koloritga mana shunday mukammal bir ta’rifni berib o‘tadi. “Jaziramadagi odamlar” romanida mahalliy kolorit o‘zining asosiy tasviriy vazifasidan tashqari asarning bir nechta g‘oyaviy maqsadlarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Aslida yam-yashil daraxtlarga burkangan tog‘ bag‘rida tug‘ilib o‘sgan tog‘liklar yengil hayot izlab, bu “shahar” deya atalmish cho‘llarga kelib yashashni boshlashadi. Asarning asosiy boshlanmasi ham ushbu cho‘lda qad

roslogan posyolka ta’rifi bilan, bu tog‘ odamlarining bu yerlarga kelib qolish hangomasi bilan boshlanishi ham bejiz emas. Muallif, bu qishloq tasviri fonida ham asar voqealari ro‘y beradigan manzil haqida ma’lumot bersa, ham bu hangoma vositasida asarning asosiy qahramonlari bilan o‘quvchini birma-bir tanishtirib, ularning xarakter qirralarini-da namoyon etadi. Luqmon Bo‘rixonning individual uslubining namoyoni mana shu o‘rinlardan boshlanadi.

Muallif asar qahramonlarini biror yumush qilayotgan tasviri bilan boshlab o‘quvchiga har doimgi, zerikarli usulda tanishtirishdan chekinib, ularning ham qanday insonligini, ham asardagi vazifasini ochiqlab beruvchi hangomadan boshlaydi. Shu nuqtadan boshlab biz Safarmurod chavandoz kim, Ergash aka kim, Chinor qanday qilib Chinor Moyliyevga aylangan barchasini birma-bir bilib olamiz va bira to‘la bu qahramonlarning o‘tmishi bilan ham tanishamiz. Qahramonlarning suhbatlariga ulanib ketgan bu tanishtiruvlar mobaynida mahalliy kolorit o‘zining ikkinchi bir vazifasini-da namoyon etib, asarning asosiy g‘oyasiga ishora qilib ketadi. Ya’ni bu uchlikning suhbatidan anglashiladiki, bu cho‘lni qanchalik gullatishga harakat qilishmasin u qarshilik qilayapti, u bo‘ysunishni xohlamayapti, u baribir asl holiga qaytadi, qaytadan cho‘lga aylanadi, demak, Qozoqboy Yo‘ldoshev aytganlaridek: “Odam yolg‘iz g‘oyalar bilan yoki g‘oyalar uchungina hayot kechira olmaydi”. [Bo‘rixon L. 2:311] Bu o‘rinda mahalliy kolorit – cho‘l tabiatiga tashqaridan bo‘lgan bosim, baribir o‘z natijasini ko‘rsatayotgani, ya’ni yer sho‘rlab ketayotgani, ko‘klamlashtirishga qarshi chiqayotgani, o‘z holiga qaytayotgani - kishi tabiatiga, hayotiga jamiyatning, atrofdagilarning bosimi, aralashuvi uning hayotida ham iz qoldirishi, inson-da o‘z holicha yashashga moyil va bu xohishlari bo‘g‘ilsa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga qiyoslanadi, shu orqali romanning bosh g‘oyasi insonning ruhiy, hissiy erkinligi muhim ekanligiga ishora qilinadi, go‘yo. Mahalliy koloritning keyingi, uchinchi vazifasi esa, asardagi mulla Mirza obrazi orqali bu cho‘lquvarlarning umumiy xarakterini ochishga xizmat qiladi. Ya’ni ota yurtini, tog‘- u toshlarini sog‘ingan mulla Mirza o‘z yurtlarini tashlab ketish – bu hukumat siyosati natijasidir deya bahona qilayotgan qishloqdoshlariga qarata ularning asli “yonboshlan yeb yotishni”, yengil va hashamatli hayotni xayol qilganlari uchun bu yerlarga kelib qolganini fosh etadi, bu bilan “Har yerni qilma orzu, har yerda ham bor tosh-u taroz-u” degan naqlni esga solmoqchi bo‘ladi. Mulla Mirzaning bu gaplari nafaqat, 41-sovxozi posyolkasidagi odamlarning haqiqati, shuningdek, bugungi kunimizda chiroyli hayot izlab xorijiy davlatlarga ketayotgan ba’zi hamyurtlarimiz haqidagi haqiqat hamdir.

Mahalliy kolorit, shuningdek, asar voqealarining hayotiyiligini, ishonarliligini oshirishda asardagi urf-odat, obrazlar turmush tarzi, ularning shevasi kabi vositalar bilan ham ahamiyatli o‘ringa egadir. Bu vositalar asardagi hudud, muhit, kishilar

haqidagi ma'lumotlarni kitobxonga berib o'tish bilan birga, muallifning dunyoqqrashini, bilimini va albatta, romanning individualligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, ijodkor o'zi yaxshi bilgan va ba'zida tasavvurga ega bo'lmagan joy, xalqlar haqida yozayotganda, uning mahorati, olamni turli ranglarda tasvirlay olish iqtidori yarq etib namoyon bo'ladi. "Jaziramadagi odamlar" romanida asar voqealari bo'lib o'tayotgan manzil, hudud haqida aniq ma'lumot berilmasa-da, ushbu vositalar, ya'ni qahramonlarning yashash tarzi, odatlari, tili bu voqealar yangi o'zlashitirilgan cho'l hududlarida bo'lib o'tayotgani anglashiladi. Qishloq odamlarining asosiy yumushi paxta yetishtirish, sabzavotlar yetishtirish, ya'ni dalada ishlash. Luqmon Bo'rixon ko'pgina asarlarda bo'lgani kabi ularning bu hayot tarzi haqida alohida to'xtalib paxta yetishtirish qiyinchiliklari-yu, uni terib olishdagi xalqning, ayniqsa, bolalarning zaxmatli mehnatlari haqida uzun tafsilotlar yozmaydi, balki, Chinor Moyliyevning tinimsiz jon kuydirishlaridan, Ulash agronomning, Ergash aka mirobchining xarakter qirralaridan, bugalter Fayzulla aka, yosh kadr O'roqning, qolaversa, Abdulla akaning, maktab o'quvchisi Samadning harakatlari va gap-so'zlaridan bu qishloq odamlarining yashash muhiti, asosiy mashg'ulotlari va tirikchiligi bilan tanishamiz. Asarda, bizning millatimizga xos bo'lgan urf-odatlar, masalan, to'y qilish, sovchilik, harbiy xizmatga yuborish ziyofatlari va boshalar, shu bilan birga faqatgina shu ovulga xos bo'lgan urf-odatlar ham qalamga olinadi. Xususan, rais Chinorning portreti berilgan o'rinlarda uning cho'loq bo'lish sababi ham keltirib o'tilar ekan, bunga tog' ayollari o'rimga chiqqanda bolalarni xurjunga solib eshakka ortib olish odati sabab bo'lganini, ya'ni xurjundagi bolakayning oyog'i noto'g'ri o'sib maymoq bo'lib qolgani aytiladi. Aslida, mana shu jismoniy kamchilikka ham bir ramziy ma'no yuklatilgan bo'lib, muallif tog'liklargagina xos bo'lgan bu odatning zamirida direktor Moyliyevning nega oqsoq ekanligini ham izohlab, ham badiiy niyatini bu udum vositasida amalga oshiradi.

Shuningdek, asardagi urf-odatlar, udumlar tasviri milliy, mahalliy qadriyatlarni ifodalash, asar jonliligini ta'minlash bilan birga bizning mentalitetimizgagina xos bo'lgan fazilatlarini ham ifoda etadi. Na'muna sifatida asardagi ayollar porterti chizilgan o'rinlarda ular kiygan kiyimlardan o'zbek qizlariga xos odob, or-nomus, hayo, andisha ham ufurib turganini kuzatamiz. Ayniqsa, romandagi hikoyachi bir personaj tilidan o'sha davrning qizlari jazirama issiq bo'lsa-da, ko'ylak ustidan baxmal nimcha kiyib yurishlari ularning naqadar sharm-hayoli ekanligi qiyoslash asnosida aytib ketiladi. Bundan tashqari, asarda qo'llanilgan shevaga oid bo'lgan so'zlar qahramonlar obrazliligni orttirishda, asar xaqlechilligini ta'minlashda, joy koloritini berishda alohida o'ringa ega: "O'zbek tilida so'zlashuvchilar tarqalgan hududlarda umummilliy xususiyatlar bilan bir qatorda o'sha hudud kishilarigagina

xos bo‘lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va b.) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o‘z aksini topadi. Shundan keyin, asarda tasvirlanayotgan hududga xos bo‘yoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to‘laqonli badiiy talqin etish uchun tabiiy ravishda dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi”. [Quronov D. 6:264-265] Xususan, romandagi faqatgina Maysara yanga personajigagina xos bo‘lgan ag‘o, domod, kalon kabi qo‘shko‘llik tojikcha so‘zlar, bu qahramonning kelib chiqish joyi, kimligi haqida ma‘lumot bersa, shuytib, tojik, qaytam, qurg‘ur, bova, jigit, so‘ljaymoq, yalchimagan, keyingi to‘l, hayiqtirib yubormoq, dali-g‘uli, bo‘g‘cha, sirri, bo‘yinsa kabi Tolliliklar ishlatgan shevalar asar tilini individuallashtirib, tog‘liklar nutqini gavdalandiradi va yozuvchining kolorit yaratish uslubini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mahalliy kolorit asarning muvaffaqiyatini ta‘minlashda ahamiyatli vazifaga ega bo‘lgan vositalardan biri hisoblanadi. Asarning ishonchligini tasvirlashda, asar voqealarini kitobxon ko‘z o‘ngida jonli gavdalandirishda, qahramonlar xarakteri, ruhiyatini tasvirlashda, o‘quvchini ularning ham dardini, ham quvonchini his qilishiga turtki bo‘lishida kolorit vositalari katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, to‘g‘ri va o‘rnida qo‘llanilgan, berib ketilgan kolorit asar badiiy g‘oyasini ifodalashda, muallif maqsadini yuzaga chiqarishda, asar individualligini oshirishda ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бобоев Тўхта Адабиётшунослик асослари. Т.: “Ўзбекистон”, 2001. 560б.
2. Бўрихон Лукмон «Жазирамадаги одамлар»: Роман. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2012. – 324 б.
3. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол.фан.номзоди... дисс.– Т., - 40-б.
4. Қаюмов А.А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадий маҳорат. Филол.фан.бўй.фалс.док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2018. – 160 б.
5. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати / Д. Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 408 б.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.